

Renessans ta'lim universiteti

Toshkent qizlar

Xaydarova Zuxra Choriyevna

Annontatsiya: *Ushbu maqolada erta nikohni oldini olish, yuzaga kelayotgan muammolar, yosh turmush qurishning sabablari haqida qisqacha bayon qilingan.*

Kalit so'zalar: *Nikoh, oila, salbiy oqibat, ma'naviy, axloqiy, oila quruvchilar.*

Darhaqiqat oila muqaddas maskandir. Oila — mo'jazgina bir jamiyat, deydi dono xalqimiz. Ammo ba'zi insonlar Islom dini qizlarni barvaqt uzatishga chaqiradi, degan noto'g'ri tushunchada yuradilar. Bu – asossiz gap. Islomda hali balog'atga yetmagan, turmushga tayyor bo'lmagan o'smir qizlarni uzatish yoki nikohlash lozim, degan gap yo'q. Hattoki balog'atga yetgan, jismoniy tarafdin turmushga tayyor yigit, agar oilani boqa olmasa, uning uylanishi shart emasligi aytiladi. Ta'kidlash kerakki, hozir shifokorlar 16–17 yoshli qizlar turmushga tayyor emasligi, xomiladorlik va tug'ruq holatida qiynalib qolayotganini aytib, ularni 19–20 yoshlarida turmushga berishni, yigitlarga 20–22 yoshlarda uylanishni tavsiya qilishmoqda. Ikki yosh rasmiy nikohdan o'tish uchun to'ydan bir oy oldin joylardagi Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish FHDYO idoralariga ariza topshiradi. Shunda ularga tibbiy ko'rikdan o'tish uchun yo'llanma beriladi. Tibbiy ko'rik varaqasi to'ldirilgan holdagina fuqarolarning rasmiy nikohi qayd etiladi. Kelinguvovlarni to'ydan oldin majburiy ravishda tibbiy ko'rikdan o'tkazish talabi bejiz qo'yilmagan. Yigit yoki qiz yashirin tarzda kechayotgan biror dardga chalingan, uni o'zi ham sezmay yurgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Kamqonlik, yurak-qon tomir, buyrak xastaliklarini davolamay turib xomilador bo'lish nogiron bolalar tug'ilishiga olib kelishi hayotda ko'p isbotlangan.

Xastaliklarni oila qurishdan avval davolash oson. Davlatimiz yaratayotgan

bu kabi sharoitlar sog'lom turmush tarzini shakllantirish orqali oila mustahkamligini ta'minlashga qaratilgan. Zero, oilada yigit va qiz o'z vazifa va mas'uliyatlarini ado etishlari, sog'lom zurriyotlarni dunyoga keltirishlari uchun avvalo o'zlari sog'lom bo'lishlari kerak. Hozirga kelib tibbiy ko'rikning ahamiyatini aksariyat ota-onalar tushunib yetdilar. Ammo shunday bo'lsa-da, hali turmushga chiqmagan yosh qiz turli yo'nalishdagi shifokorlarga uchrab yurishining nima keragi bor?, deb tor mulohaza yuritadiganlar ham yo'q emas. Ana shunday fikrlash sababli tibbiy ko'rikning talab darajasida o'tkazilishiga e'tibor bermay, giyohvandlikka berilgan yoki nasliy kasalligi bo'lgan kuyovga uzatish oqibatida baxtsiz qolgan qizlar, pushaymon chekkan ota-onalar hayotda uchrab turibdi. Aksariyat erta oila qurgan qizlarda kamqonlik, kamquvvatlik kuzatiladi. Bu hol kelinlarning uzoq vaqt bo'yida bo'lmasligi, xomiladorlik og'ir kechishiga, go'daklar nobud bo'lishi yoki nogiron tug'ilishiga, tug'ruqdan keyingi turli asoratlarga, hatto bepushtlikka olib kelishi mumkinligini shifokorlar ta'kidlaydi.

Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam: "Ilm talab qilish har bir musulmonga farzdir", deb ta'kidlaganlar. Zaruriy ko'nikmalarni egallamay, bilim olmay turib turmushga chiqqan qiz, ayol, rafiqqa, ona, beka, jamiyat a'zosi sifatidagi vazifalarini to'kis ado etishga qiynaladi. Yoshlar o'rta umumta'lim maktabi, undan so'ng litsey va kollej ta'limini olishlari shart. Zero, dinimiz ta'limotlariga ko'ra ilm olish, ma'rifatli bo'lish, hayot uchun zarur bo'lgan barcha ko'nikmalarni o'rganish har bir qiz bola uchun ham farzdir. Bordi-yu, shundan oldin turmush qursalar, o'qish ham chala, oila yumushlari ham, uy bekaligi va boshqa ishlar ham chala bajarilishiga yo'l ochilgan bo'ladi. Muhimi, ilmi va kasb-hunarli ayolgina farzandining komil inson bo'lishiga intiladi. Turmush qurish, oila tebratish va farzand tarbiyasi kabi muhim ishlarda diniy va milliy an'analarimizga rioya qilish, oila va nikoh borasida davlatimiz chiqargan qonun-qoidalarga qat'iy amal qilish zarur. Afsuski, hozirgi kunda ba'zi chalasavod kishilar o'zboshimchalik bilan yuqorida aytilgan nikoh shartlari bajarilishini so'rab-surishtirmay, boz ustiga, yoshlarga oilada er va xotinning haq-huquqlarini, taloq masalalarini tushuntirmasdan, kelin-kuyovlarga nasihat qilmasdan, yengil-yelpi shar'iy nikoh

o'qimoqdalar. O'zlarining chalasavod ekanliklarini bilganliklari uchun ikki yoshni nikohlashdek mas'uliyatli ishni “yeng ichida” o'tkazishga urinadilar. Ular poydevori mustahkam bo'lmagan oilalar qurilishiga sababchi bo'lmoqdalar. Oqibatda ajrimlar ko'paymoqda, bolalar tirik yetim qolib, yoshgina ayollar bir umrga baxtsiz bo'lib qolmoqda.

Rasululloh sallallohu alayhi vasallam: “Nikohni do'mbiralar bilan e'lon qilinglar, uni masjidida o'qinglar”, dedilar. Fiqhiy kitoblarda nikohning masjidida bo'lishi mustahab, deyilgan. Nikoh ham ma'naviy ibodat bo'lgani uchun masjidida o'qiladi.

Noqonuniy nikohlarning oldini olish uchun shar'iy nikohlarni faqat rasmiy jome' masjidlar imom-xatiblari o'qishlari, shar'iy nikoh o'qishdan oldin kelin-kuyovlarning rasmiy oila qurganligi haqida FHDYO bo'limlari guvohnomasi olinishini, shuningdek, O'zbekiston musulmonlari idorasi joriy etgan nikohnoma kitobchasi bo'yicha barcha ma'lumotlar to'liq qayd etilib, nikohlanuvchilarga taqdim etilishini, qonuniy nikoh yoshiga yetmagan yoshlar o'rtasida shar'iy nikoh tuzish qat'iy taqiqlanishini, imom-xatiblar joylardagi QFY va MFY mutasaddilari bilan hamkorlikda norasmiy shaxslar nikoh o'qishiga qarshi tushuntirish ishlari olib borishlarini yo'lga qo'yish kerak.

Hanafiy mazhabining mo'tabar manbalaridan "Durrul muxtor" kitobining "Nikoh fasli"da bunday deyiladi: “Odamzodga nikoh va imondan boshqa hatto jannatda ham davom etadigan ibodat yo'q. Oila shunday saodatbaxsh bir bog'ki, u hatto jannatda ham davom etadi. Har qanday shartnoma ma'lum muddatdan so'ng kuchini yo'qotadi, ammo bir-birlaridan rozi bo'lgan umr yo'ldoshlarning birgalikdagi hayoti o'lim bilan ham tugamaydi”. Shunday ekan nikoh ikki dunyo saodatiga yigit va qizni birga eltuvchi muqaddas rishtadir. Yangi qurilayotgan oilaning kelajagi ota-onalarning, shuningdek yoshlarning o'zini ham qiziqtiradi. Bunday ma'suliyatli damda yuzaga kelayotgan oila kelajagi qanday bo'lishini bilish uchun ota-onalar, bo'lg'usi kelin-kuyovlar quyidagi nikoh oldi omillariga e'tibor berishi lozim. Nikoh oldi omillari: oilaviy hayotga yetukligi, ularning oila qurish sabablari, ularning oila qurishgunga qadar bir-

birini tanishlik muddati shart-sharoitlari, ularning bo'lg'usi hayot haqida tasavvurlarini kiritish mumkin. Masalan: nikohda yetuklik deganda oila quruvchi yoshlarning jismoniy, jinsiy, huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, psixologik kabi yetuklik jihatlarini aniqlash mumkin. Psixologlar tavsiyasiga binoan nihoyatda erta (16-17 yoshda) va kech (28-30 keyin) oila qurish maqsadga muvofiq emas. Nihoyatda erta yoshda oila qurish va ikkisini ham yoshi 17-18 bo'lishi, yigitning oila boshlig'i sifatida shakllanishiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Qiz bola 17, ba'zan 16 yoshda ham onalik, uy bekalik vazifalarini bajarishga tayyor bo'lishi mumkin, ammo 17 yoshdagi yigit hali to'laqonli oila boshlig'i vazifasini bajarishga tayyor bo'lmaydi. Ba'zida bu kelinni kuyovga yetarli darajada hurmat qilmasligiga sabab bo'lishi mumkin. Kech oila qurishni maqsadga muvofiq emasligi yosh ulg'aygan sari (ayniqsa qizlarda) oila qurish imkoniyatlari pasayadi, ammo turmush o'rtog'i tanlashdagi mezonlar soni keskin ortadi. Har bir "nomzoddan" turli kamchiliklar topilaveradi. Bu masalada shoshilish ham, kech qolish ham xatoliklarga olib kelishi mumkin. Insonning psixologik yetukligi bu o'z oldiga erishishi muqarrar bo'lgan, bunga imkoniyatlari yetarli bo'lgan maqsadlarni qo'yishi, turli yashash sharoitlariga moslashishidir. Yosh qizlarning ham erta (16-17 yoshda) turmushga chiqishi va ularning oilaviy hayotga tayyor emasligi turli salbiy holatlarga olib kelmoqda. Birinchidan, milliy udumga ko'ra, ko'pincha kelinlarning oiladagi mavqei past darajaga ega bo'ladi va ular ko'proq har xil oilaviy ishlarni bajaradilar. Tabiiyki 16-17 yoshli qizning jismi hali bunday og'ir ishlarni bajarishga tayyor bo'lmaydi. Ikkinchidan, qizlar bu yoshda ma'naviy jihatdan ham oila munosabatlariga tayyor bo'lmaydi. 10« Zamonaviy dunyoda tabiiy fanlar: Nazariy va amaliy izlanishlar» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiyasi Uchinchidan, yosh turmushga chiqqan kelinlarning shu yoshda homilador bo'lishi tos suyaklari kichkina bo'lganligi uchun xavflidir. Respublikamizda qizlarning erta turmushga chiqishi aholining tez o'sishiga ta'sir qilibgina qolmay, halq xo'jaligining jadal rivojlanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki 18-25 yosh qizlarning bilim olishi, kasb egasi bo'lishi va mehnat qilish uchun qulay

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

yosh hisoblanadi. To'rtirichidari, o'z qadri, huquqlari va o'zini-o'zi himoya qilish tushunchalarini anglab etgan, jinsiy va reproduktiv madaniyati to'la shakllanmagan yosh qizlarning biron kasb-hunar egallamasdan, bilim olmasdan, mutaxassislikka ega bo'lmasdan oila qurishi ularning qaynота, qay-nona va erlariga iqtisodiy jihatdan qaram holda yashashlariga sabab bo'lmoqda.



Xulosa:

Ayrim oilalarda aynan iqtisodiy qaramlik tufayli kelinlar yosh bolasi bilan kamsitilmoqda, tazyiqqa uchramoqda. Shuning uchun qizlarning biron hunar yoki mutaxassislikka ega bo'lgandan keyingina turmushga chiqishlari maqsadga muvofiqdir. Respublikamizda 18-29 yoshdagi xotin-qizlarning ko'pchiligi bola tug'ish, ularni parvarishlash, tug'ishgacha va undan keyingi ta'tilda yoki bemor farzandlarni parvarish qilish bilan bandlar. Aholining nikohdan o'tish yoshi kuzatilganda, ularda 24-25 yoshdan boshlab, iqtisodiy jihatdan mustaqil bo'lib, o'zini ta'minlay olgandagina nikohdan o'tib, farzandli bo'lganligi ma'lum bo'ldiyu bu holat aholini tez sur'atda o'sishini oldini olib, aholi o'sishini sifatini yaxshilaydi va iqtisodiy taraqqiyotga, yoshlarning intellektual o'sishgata'sir ko'rsatadi. Beshinchidan bundan tashqari o'smirlik davrida organizmda turli morfologik, fiziologik, ruhiy o'zgarishlar boshlanadi va

balog'atga yaqinlashgan sari ular mujassamlashib boradi. Yosh onalarning sog'ligi ko'proq mana shu yoshda o'zgarishlarning mo'tadil ketishiga bog'liq.



Aks holda bu holat keyinchalik kasalliklarining og'ir kechishiga sabab bo'ladi. O'smir qizlarni ham jismoniy, ham jinsiy balog'atga yetishida anchagina salbiy nuqsonlar bor, bu esa ularda o'tayotgan ko'pgina kasalliklar fiziologik jihatdan nimjon bo'lgan organizmda yuzaga kelayotganligini bildiradi. Yuqondagilarni hisobga olib, bizning sharoitda yosh qizlarning to'liq balog'atga yetishi 19-20 yoshlarga to'g'ri keladi deyish mumkin. Qizlarning oilaviy hayotga jismonan, ma'nan va ruhan, reproduktiv va jinsiy hayot madaniyatiga tayyor bo'lmagan holda erta turmushga chiqishlari quyidagi oqibatlariga olib kelmoqda:

1. Yosh oilalar orasida ajralishlarning ko'payishi ajralishlar dastlabki besh yil davomida ro'y beradi;
2. Tug'ish vaqtidagi murakkabliklar; tug'ish va homiladorlik o'rtasidagi oraliq muddatining qisqarishi;
3. Biririchi bor tugayotgan va 20 yoshgacha bo'lgan yosh ayollar o'rtasida o'limning ko'payishi. Bu holatlarni tahlil qilish uchun raqamlarga murojaat qilamiz. Respublikamizda o'tkazilgan sosiologik tadqiqotlarga ko'ra 45, 1% qizlar 20 yoshgacha turmushga chiqishadi. Turmushga chiqqan ayollarning 37, 4% 20 yoshgacha farzand ko'rishadi. Ulardan 20% 20 yoshgacha farzand ko'rsa, 15% ikkitadan, 1,4% uchtdan farzandli bo'lishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Jalilov J.J., Ibragimov A.U. Aholisi salomatligiga Tojikiston alyuminiy zavodi zaharli gazlarining ta'siri (Curxondaryo viloyatining shimoliy tumanlari misolida) // Toshkent tibbiyot akademiyasi axborotnomasi. Toshkent-2021 yil. 32-35 b.

2. Jalilov J.J., Tojiev Z.G'. Talabalar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish // Toshkent tibbiyot akademiyasi axborotnomasi. Toshkent-2021 yil. konf. 147-148 b